

IJODIY PARVOZ

2022-yil mart № 3 (107) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz ijodiyparvozgazetasi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy gazetasи



Ayol borki, olam munavvar

8-mart "Xalqaro xotin-qizlar" bayrami munosabati bilan joriy yilning 7-mart kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Ayol borki, olam munavvar" nomli ma'naviy-ma'rifiy, musiqiy tadbir tashkil etildi.

Bayram tadbirida institut xodimlari va professor-o'qituvchilari, talaba-qizlar hamda faxriy ayol-ustozlar mehmon sifatida taklif etildi.

Institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev institut xotin-qizlariga o'zining bayram tabriklarini aytdi. Ko'p yillik samarali faoliyati davomida institut ravnaqiga hissa qo'shib kelayotgan bir guruh professor-o'qituvchilarning, ustoz-murabbiylarning mehnatlari e'tirof etildi.

- 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayrami bilan institut ayollar jamoasini, talaba qizlarimizni, shuningdek, sizlarning timsolingizda yurtimizdagি barcha onalar, opasingillarimizni chin dildan muborakbos etaman, - dedi

"Jannat onalar oyog'i ostida"

Bolaligimizda aniqrog'i esimizni taniy boshlaganimizda bizga onangni yaxshi ko'rasanmi, yoki dadangni yaxshi ko'rasanmi deb savol berishardilar va tabiiyki ko'pchilik onamni deb javob berishard.

Bu aslo otamni yomon ko'raman degani emas, aksincha bu onaga bo'lgan mehr-muhabbatning yuksak ramzi, onaga bo'lgan samimiyatning bebabohi izhori ekanligini otalarimiz ham tushunadilar. Onalarimizni yaxshi ko'rishimiz, ardoqlashimiz, hurmat qilishimiz hech qachon og'ir botmaydi. Chunki otalarimizning ham onalari bor. Ular ham hanuz onalarini tanho ataydilar. O'zbek farzandlari, o'zbek xalqi uchun ona doim til so'zlashga ojizlik qilgan qalbdagi tunganmas mehr timsolidi! Onani e'zozlash, qadr-qimmatini o'niga qo'yib, boshga toj kabi ko'tarish bizlarga otabobolardan merosdir.

AYOL – jamiyat guloji, mehr va muhabbat timsolidir

2022-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, jamiyatda ayollarimizga bo'lgan e'tiborni eng quyi bo'gingacha, mahallagacha tushirib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning yaxlit tizimi yaratilmoqda. Ta'lrim tizimida xotin-qizlar uchun yana bir qator keng imkoniyatlar beriladi:

- doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.
- yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o'qishga sharoit yaratiladi;
- yangi o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi (23 ming nafar qizlarga 200 milliard so'm);

YUZ MAHALLA BILAN YUZLASHGAN DARGOH

Mahalla – xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigi sifatida xizmat qiladigan, insonlarni jamiatnatning bir qismi bo'lishga o'rgatadigan, ularni bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan noyob ijtimoiy tuzilmadir.

O'zbek mahallalari azaldan jamiyatning o'ziga xos tarbiya o'chog'i, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlар sayqallanadigan, fuqarolarni egzu maq-sad sari birlashdiradigan ma'naviyat maskani sanalgan. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojimandlar holida xabar olish, to'y-tomoshalarni ko'pchilik bilan o'tkazish kabi fazilatlar, avvalo, mahalla muhitida shakllangan.

Mahalla – arabcha so'z bo'lib, "o'rin, joy, makon" ma'nolarini anglatadi. Adabiyotlarda mahallaning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlarni ko'plab uchrashishimiz mumkin. Masalan, Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda bundan ming yillar ilgari bir qancha mahallalar bo'lganini qayd etib o'tgan. Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida

Ibrohim YO'LDOSHEV,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti rektori,
filologiya fanlari doktori,
professor

mahallani "Mahalla shahar ichidagi shaharcha"dir deya ta'riflagan. Mahallalar Amir Temur davrida gulab-yashnagan, ravnaq topgan. Bu davrda mahallalar fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan.



Institutda "Navro'z"

Joriy yilning 30-mart kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bayramona bezatildi.

Erta tongdan karnay-surnay sadolari yangrab, kishilarni bayram sayliga chorladi. Ezgulik, muhabbat, xayr-saxovat, muruvvat, yangilanish va yasharish ayyomi qalblarga surur, olam-olam quvonch va yangi-yangi orzu-havaslar baxsh etadigan, xalqimizga xos qadimiy qadriyat hisoblangan "Navro'z" umumxalq bayrami O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham juda ajoyib tarzda o'tkazildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim YO'LDOSHEVning BAYRAM TABRICI

Shu kunlarda atrofdan yangilanish, yasharish fasli boshlanib, insoniyatga ezgu qadriyatlар ulashuvchi, odamlarni birkamlikka da'vat etuvchi, boy madaniy merosimizning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizning har bir hududida, tashkilot va muassasalarda, ta'lim dargohlarida yuqori saviyada o'tkazilmoqda. Xalqimizning aziz va ezgu bayramlaridan biri sifatida qalblarimiz va ongu-shuurimizdan mustahkam o'rin olgan Navro'z milliy va umuminsoniy qadriyatlар tarannum etiladigan bayramdir. Xalqimiz uchun sharqona yangi yil – Navro'z ayyomi bilan yana bir bor samimiy muborakbos etaman. Ilmiy, ijodi va pedagogik faoliyatizingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Shu o'rinda aytish lozimki, mamlakatimizda inson manfaatlari oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Ilgari amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" deb o'zgartirildi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ijodkor ziyyolarimiz har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda, ularga ehtirom ko'rsatilmoqda. Jahan miqyosidagi ilg'o'rajribalar asosida zamonaviy madaniyat hamda san'at muassasalar bo'lim etilmoqda. Yangi taraqqiyot bosqichini bosayotgan mamlakatimizda ta'lim sohasida ham katta qadamlar tashlanmoqda. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi samarali islohotlar, yuksak o'zgarishlar, yangiliklar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'limoqda. Ta'lim dargohimizda iqtidorli talabalarni ilmiy izlanish va ijodi muhitiga kirib kelishlari ularni Davlat stipendiyalari hamda talabalar Respublika fan olimpiiadalar, turli tanlovlardar, Davlat dasturi asosida bajarilayotgan ilmiy loyihalarga jaib etish hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, konferensiya va seminarlarga jaib qilish, shuningdek, ilmiy va ommaviy nashrlarda maqola, hikoya va she'rлarini chop etishlari va mustaqil ijodi izlanishlar olib borishlariga alohida e'tibor qaratilgan. "Eng faol kutobxon" tadbiri, "Kitob bilan kelajak sari!" shiori ostida "Kitob o'qishga keling bir finjom bepul qahva iching!" mega aksiyasi ham amalga oshirilmoqda.

Darvoqe, shuni ham mummuniyat bilan qayd etish joizki, 2021-yilning 8-noyabrdan boshlab, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan poytaxtimiz mahallalarida "Mahallada duv-duv gap" shiori ostida tizimli ravishda madaniy-ma'rifiy tadbirlari o'tkazishga kirishdi.

Ayni paytga qadar poytaxtimizdagи 98 ta mahalla hududida tadbirlar tashkil etildi. Mazkur konsert dasturlarida juda faol ishtirok etgan O'zbekiston xalq artistlariga, O'zbekiston xalq hofizlariga, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlariga hamda iqtidorli talabalar butun institut jamoasi nomidan cheksiz minnatdorchilik bildirilmoqchiman.

Hurmatli professor-o'qituvchilar, talabalar hamda mehmonlar! Sizlarni quvonch va shodlik tark etmasin! Oolangizga baxtu saodat, xonadonlaringizdan tinchlik-xotirjamlik va fayzu baraka arimasin! Navro'zi olam yurtimza tinchlik-omonlik, baxtu saodat, qut-baraka olib kelsin! Har bir oila, har bir xonadonda yaxshi kunlar, to'y-tomoshalar ko'p bo'lsin!



YUZ MAHALLA BILAN YUZLASHGAN DARGOH

1 Uni boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zining yozilmagan ichki tartib-qoidalariga ega bo'lib, u hamma uchun birdek qonuniy hisoblangan. Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o'zgarishiga qarab mahallaning vazifalari ham o'zgarib turgan.

Mahalla instituti dunyoning boshqa hech bir davlatida uchramaydi. O'zbekistondagi mahallalarning o'ziga xos jihatlari ko'p. Mahalla azaldan tarbiya maskani, mehr-oqibat, ahillik va totuvlik o'chog'i bo'lib kelgan. Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida mahallaning rolini kuchaytirish, huquq va vakolatlarni yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahallaning nafaqat shakli, balki, mohiyati ham o'zgardi, vakolat hamda vazifalari ko'lami kengaydi. Mahallalarimizda qaror topgan ijtimoiy-ma'naviy muhit yoshlarimizni ota-bobolarimiz an'analariga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalihsda fuqarolar bilan ishlashning yangicha tizimi yaratilib, hayotga muvaffaqiyatli tafbiq etilmoqda. Mahalla ma'naviyat maskani, ahillik, qo'rg'onidir. Oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yoshlarni har tomonlarda barkamol etib tarbiyalash, jamiyatda mehr-oqibat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlashda mahallaning o'mi tobora ortib bormoqda. Yuksak islohotlar, milliy madaniyatimizni, qadriyatlarimizni asrab-avaylashga qaratilayotgan ulkan e'tibor o'z samarasini bermoqda.

2021-yilning 19-oktabr kuni Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri aholisi bilan bo'lgan uchrashuvda Madaniyat vazirligi tizimidagi oly o'quv yurtlari tomonidan poytaxtimiz mahallalarida duv-duv gap bo'ladigan, aholi o'tasida butunlay yangicha formatdagи madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish borasida o'z fikrларини aytgan edi. Ushbu topshiriq asosida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, professor o'qituvchilar, sohaga aloqador mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan muloqotlar jarayonida atroficha ko'rib chiqilib, keng muhokama qilindi. Qatnashchilarining bildirgan kreativ fikrларини asosida 2021-yilning noyabr-dekabr oyalarida "Mahallada duv-duv gap" loyihasida asosida poytaxting barcha mahallalarida ma'naviy-ma'rifiy va konservtadbirlarini o'tkazish rejalashdirildi. Ushbu tadbirlarni o'tkazish bo'yicha alohida konsepsiya ishlab chiqildi. Ko'lamining kengligi hamda ahamiyati jihatidan muhim bo'lgan ushbu tadbirga juda katta tayyorgarlik ko'rildi. O'ziga xos maslahat tuzini olgan yig'ilishlar o'tkazilib, tadbirlar davomida kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uqtirildi. Musiqa cholg'ularidan juda mahorat bilan foydalanish zarurligi qayd etildi. Bildirilgan muhim fikrлар o'z navbatida, san'atkorni quvontirdi, ruhlantirdi. Shuningdek, ishtirotchilar tomonidan istiqbolli rejalar ham taklif qilindi.

Shu tariqa 2021-yilning 8-noyabr kunidan boshlab, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan poytaxtimiz mahallalarida "Mahallada duv-duv gap" shiori ostida tizimli ravishda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga kirishdi. "O'rda", "Xadra", "Shayxontohur", "Labzak", "O'qchi", "Rohat", "Katta Qozirabod", "Sebzor", "Yangi Sebzor", "Namuna", "Ziynat", Yakkasaroy madaniyat markazida, "Behizor", "Katta Yangiobod", "Binokor", "Podshobog" kabi yana boshqa bir qator mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarida bayramona kechalari tashkil qilindi. Shunigdek, 2022-yil 22-fevraldan boshlab, mazkur an'anavy tadbir davom etirildi. Ayni paytgacha Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Habib Abdullayev", "Bahor" "Navnihol", "Oltintepa", "Shalola", "Bog'imaydon", Yunusobod tumanidagi "Mirzo Ulug'bek", Sergeli tumanidagi "Jaloyir" mahalla fuqarolar yig'inlari, shuningdek, Bektemir tuman Madaniyat markazida, xullas, poytaxtimizdagи yuzdan ziyod mahalla hududida "Mahallada duv-duv gap" konservtaduri o'tkazildi.

Ushbu bayramona kechalarda mahallalar faollari, keksa va nuroniyalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar vakillari, uyushmagan yoshlar, hududdagi tashkilot, korxonalar, muassasalar mutasaddilari, ta'lim dargohlarining direktori, mehnat faxriylari jam bo'lishdi.

"Mahallada duv-duv gap" konservtadurlarining har biri O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining milliy qo'shiqchilik kafedrasi dotsenti, professor Ahmadjon Dadayev badiiy rahbarligi ostida faoliyat ko'rsatayotgan "Sayqal" hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Cholg'u ijomchiligi" kafedrasi dotsenti, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Komiljon Shermatov badiiy rahbarligidagi "Sado", O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Folklor va etnografiya" kafedrasi qoshidagi, Oybek Hamroyev badiy rahbarligidagi "E'zoz" folklor-etnografik ansamblari vakillarining biridan ajoyib musiqalari bilan boshlandi.

Madaniy-ma'rifiy kechalarda O'zbekiston davlat

san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilar, ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekiston xalq hofizi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvonlari sohiblari, iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan sho'x qo'shiqlar ijo qilinadi. Xonanda-yu, sozandalarning har bir chiqishlari tomoshabinlarning gulduros qarsaklari ostida qo'llab turildi. Institut talabalarining orombaxsh qo'shiqlarga hamohang tarzda ijro qilingan go'zal raqslari esa barchani davraga chorladi. Konsert dasturida shuningdek, respublikamizning taniqli estrada xonandalar, xalqimiz suygan yulduzlar tomonidan ham sho'x qo'shiqlar ijo qilindi va bu davraga yanada o'zgacha tarovat, ko'tarinkи kayfiyat bag'ishlendi.

Jumladan, O'zbekiston xalq artisti, Mukarrama Turg'unboyeva boshchiligidagi "Bahor" ansambl bilan bir qator mamlakatlarda o'zbek san'atini targ'ib qilishga ulkan hissa qo'shgan, O'zbekiston xalq artisti, professor Xayrulla Lutfullayevning qo'shiqlari barchada xush kayfiyat ulashmoqda. O'zbekiston xalq hofizlari Orolmirza Safarov, Beknazor Do'stmuhammedov, Soyib Niyazov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Azamat Sharipov, Rustam Abdullayevlarning ijrosidagi qo'shiqlar yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashda o'ziga xos o'rinn tutadi, desak mubolog'a bo'lmaydi.

Mana shunday tashkil etayotgan tadbirlarimizga aholi katta qiziqish bildirayotgan ko'ksimizni faxru iftixorga to'ldirmoqda. Bunday hurmat va ehtirom institutning faol ijodiy jamoasi zimmasida yanada ulkan vazifalar turgandan hamda san'atkornarning faoliyatiga nisbatan mas'uliyat bilan qarashi lozim ekanligidan dalolat beradi. Eng quvonarlisi, tadbirga yig'ilganlarning barchasi chinakam bayram kayfiyatida bo'lib, raqsga tushib, davraga fayz kiritishadi. Mana shunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, bayramona kechalarini montazam o'tkazish orqali mamlakatimizdagi samarali islohotlarning mazmum-mohiyati xalqimizga yetkaziladi, fuqarolar qalbida bugungi kunimizga shukronalik va ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'ularini yanada oshirishga erishiladi.

Chunki inson ruhiyatini davolovchi, unga kayfiyat baxsh etuvchi buyuk kuch musiqa hisoblanadi, yaxshi kuy-ko'shiqni eshitgan kishini charchog'i chiqadi, undan tashqari, har xil bo'lgan ur xayollardan yiroq bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, qo'shiqchilik, musiqa san'ati juda uzoq o'tmishga egadir. Jumladan, Xondamirning "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor" asarida yozilishicha, Hirotda boshqa san'at turlari qatorida musiqa va qo'shiqchilik madaniyati ham niyoyatda taraqqiy etgan. Ushbu asarda Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan kuy va qo'shiq ijrochilarga alohida ta'rif berilgan. Har bir san'atkorni o'sha davrning mashhur va mahoratlari ustalar bo'lgan. Alisher Navoiy ham musiqa ijrosi bo'yicha juda yuksak musiqa mahorat sohibi bo'lgan. U qonun va udni yuksak iste'dod bilan chala olgan. Shu boisdan Navoiy saroy sozandalarning musiqa borasidagi bilim va mahoratlarini muttasil ravishda yuksaltirib borishlarida har tomonlhma harakat qilgan. Alisher Navoiyning xomiyligi ostida Husayn Boyqaro saroyida faoliyat ko'rsatayotgan Ustod Sayyid Ahmad g'ijjak ijrosida eng yetuk san'atkorni sifatida dovrug' qozongan bo'lsa, Ustod Shohquli ham g'ijjakda mahorat bilan o'ynagan. Navoiy o'zining sevimli shogirdi Shohquliga uning bolaligidan g'amxo'rlik ko'rsatadi. Ustod Shohquli keyinchalik ud, qo'biz kabi musiqiy asboblarda ham mahorat bilan kuy ijo eta oladigan san'atkorni darajasiga ko'tariladi. Asarda yana ud va qonun ustasi Ustod Husayn, o'z davrining nay ustasi Ustod Shahy Nayi, musiqa san'ati bobida tengi yo'q mahorat egasi Mavlono Alishoh, mahoratlari nay ijrochisi Mavlono Sultan Muhammad Xandon, musiqa borasida tengsiz san'atkorni Xo'ja Abdulkodir go'yanda kabi san'atkornarning nomlari alohida tilga olinadi. Asarda Alisher Navoiyning kuy va qo'shiq san'ati homiysi bo'lganligi, shuningdek, XV-XVI asrларидаги кeng tarqalgan asosiy cholg'ulardan qonun, ud, qo'biz, g'ijjak, nay kabilar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur tadbirlarning yoshlarni milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma'naviy merosimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlariga ko'maklashish borasidagi hissasi juda katta bo'lmoxda.

Tadbir davomida mahalla hududida joylashgan ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchilar, umidli yoshlarning ijodiy chiqishlari ham tomoshabinlarda yaxshi taassurot goldirdi. Bu tadbir yig'ilganlarning barchasiga ajib bir xushnudlik, o'zgacha bir zavqu shavq bag'ishladi. Mahalla vakillari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidan tashrif buyurgan mehmonlarga hamda el ardog'i xonandalarga cheksiz minnatdorchiligini bildirishmoqda.

Zero, mahalla qadriyatlar va urf-odatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida o'zligimizni anglashga va vataparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.



Institutda "NAVRO'Z"

Institut o'quv binolari Navro'zga monand bezatilib, fakultet kafedralari tomonidan bayram dasturxonlari turli xil taomlar, pishirilalar va shirinliklar bilan yasaldi. "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Sportning bir nechta turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

Ushbu bayram sayli Toshkent harbiy okrugi harbiyalarining chiqishlari bilan boshlandi. Institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'z olib, barchani Navro'zi olami bilan qutladi. Keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, aholi farovonligi yo'lida olib borilayotgan islohotlarni e'tirof etdi. Milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lgan "Navro'z" bayramining qadimdan nishonlanishining tarixi, bu bayram qut-baraka, mehr-oqibat, bunyodkorlik va hamjihatlik timsoli ekanligi xususida muhim fikrlarni bildirdi.

Institutda "Navro'z" umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha tashkiliy komissiya a'zolari, professor-o'qituvchilar hamda tashrif buyurgan mehmonlar e'tiboriga milliy taomlarimiz ko'rgazmasi taqdim etildi. Noz-ne'matlarga to'lib toshgan dasturxonada milliy taomlar, ko'k somsa, chuchvara, halim, sumalak, shirmoy non va shirinliklar tortiq etildi.

Laparlar, qo'shiqlar, xalq termalari, taqlid ustalarining chiqishlari, ertamizning egalari bo'lgan talaba-yoshlarning ijrosidagi ona Vatanni, ko'klamni, baxtiyor bolalikni madh etuvchi jarangdor kuy-ko'shiqlar, jozibador raqslar barchaga zavq-shavq ulashdi. Musiqa og'ushida jonlanayotgan turfa gullar, quyoshning zarin rurlarida jilolanayotgan kamalakrang bahor chechkalar barchaga yangilanish ayyomi shukuhini baxshida etdi. Yurtimiz tinchligi va farovonligi uchun kishilar qalbida shukronalik tuyg'ulari jo'sh urdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ahil jamoasi bu yilgi Navro'zni ham ana shunday alohida tayyorgarlik va ko'tarinkи ruh bilan kutib oldi.




Navro'z shodiyonalari

Navro'z bahorning eng go'zal, yashnash va yasharish bayramidir. 21-mart kecha va kunduzning tenglashadigan kuni bo'lgani uchun yil boshi sifatida qadimdan Navro'z bayrami Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanib kelinadi. Bu bayramning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'zni bayram qilish turkiy xalqlarda eng katta bayamlardan bira hisoblangan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Navro'zga bag'ishlangan ko'plab xalq qo'shiqlari keltirilgan. Navro'z haqida buyuk allomalarimizdan bo'lgan Abu Rayhon Beruniy ham o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida batafsil to'xtalib o'tgan. Beruniy Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir," deydi. "Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'nomi anglatarkan. Navro'z eronliklar "zij"lari bo'yicha o'tmish zamonalrarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtarda Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtida, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilgunicha, o'simlik unib chiqqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtida keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiha dalil qilingan" deya izohlaydi. Navro'z bayrami shuningdek, Umar Xayyomning "Navro'znomasi", Alisher Navoy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarining asarlarida uchraydi.

Navro'z bilan bog'liq xalq marosimlari ham o'zining qiziqarliligi bilan ahamiyatlidir. Qish uzoq cho'zilib, ko'klam kelishi intiqlik bilan kutilganda Boychechak marosimi o'tkazilgan. Bu marosimda bolalar qo'llarida boychechaklar bilan uyma-uy yurib, xonadonlardan qishni haydaganlar. Marosim qanchalik tantanalni o'tsa, ko'klamni madh etuvchi qo'shiqlar qanchalik baland kuylansa, qish shunchalik tez xonadonlarni tark etadi va bahorning go'zal chechagi Boychechak xonadonlarga shodu xurramlik, baxtu omad hamda baraka olib keladi, degan tasavvur bo'lgan.

Qadimdan ajodolarimiz Navro'z bayramida milliy kiyimlar kiyib, bayram qilishgan. Navro'z taomlari ham o'ziga xosdir. Ular orasida ayniqsa, sumalak, halim, ko'k somsa va boshqa taomlar pishirish an'anu tusiga kirgan. Bu ayyomda bolalarning ishtiroki juda faol bo'lgan. Ular Navro'z bayramida turli ommaviy bayram o'yinlari o'ynaganlar.



Ayol borki, olam munavvar

Jumladan, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet taskhil etiladi. Paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi. Yangi o'quv yildidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, kelgusi besh yilda 8 trillion so'm mablag' ajratiladi. Kelgusi o'quv yildidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qtog'natish uchun qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanadi.

Jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlarni uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Monomarkazlar va oliygochlardan qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo'lgan ishchi kasblarga o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'rni kelganda shuni ham qayd etish lozimki, – dedi professor Ibrohim Yo'ldoshev. – Bir necha kunlardan buyon erta tongdan mazkur ta'lim dargohining 2-Talabalar turar joyiga borib, u yerda istiqomat qilayotgan talaba qizlarimizning yashash sharoitlarini yanada yaxshilash

borasida samarali ishlarni bajarmoqdamiz. Say'-harkatlarni bilan bu yerda talabalarning ovqatlanishi, internet tarmog'idan foydalanan, kitob mutolaa qilishi, gazeta va jurnal o'qishi, aqliy salohiyatlarini, bilim darajalarini oshirishi, televizor tomosha qilishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Talabalarni ma'naviy ongini shaklantirish hamda manan yetuk qilib tarbiyalash maqsadida talabalar turar joylarda zamonaviy ma'naviyat va ma'rifat xonalari tashkil etilgan. Binoning har bir qavatida talabalar uchun oshxonasi, yuvinish xonasasi va zamonaviy kir yuvish mashinasi bilan ta'minlangan xonalar mavjud. Kompyuter xonasida yangi, zamonaviy kompyuterlar olib kelib o'rnatilgan. Yangi muzlatkichlar, har bir xonaga qo'shimcha kravotlar, yangi kir yuvish mashinalari berilgan. Bunday e'tibordan esa talaba qizlarimizning quvonchi cheksiz.

Yana bir bor bahor hamda go'zallik bayrami – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan qadrli ayollarimizga eng samimiyl tilaklarimizni bildiramiz.

So'ngra sahnalashdirilgan ajoyib ijodiy chiqishlarga navbat berildi. Tadbir davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, ushu dargohda faoliyat olib borayotgan "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekiston xalq hofizi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvonlari sohiblari, iqtidorli talabalar ishtirokida musiqiy dastur yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Chin insoniy fazilatlar, ezunglik, odamiylik, mehr va sadoqatni taramunn etuvchi qo'shiqlar, jozibali raqsolar ijro qilindi.

"Jannat onalar oyog'i ostida"

Bir buyuk inson aytganlaridek: "Bu olamda ulug' zot kim, desang, shubhasiz onam deyman". Ona ulug' zot boliishi bilan birga o'zida hayratli mo'jizalarini mujassam etgan sir-sinoatlarga boy xilqatimizdir. Masalan go'dak chinchirab yig'layapti. Uni atrofdagilar qancha harakat qilmasin tinchlantrilmayapti. Bola na aldrovga na koyishga ko'nadi. Yumushlaridan bo'shagan onasi uni darhol bag'riga bosadi. Go'dak ona hidini olishi bilan tinchiydi. Yana bir holat: Bola kasal issig'i baland, bir ahvolda yotibti. Unga shifikorning doridarmonlari ham unchalik kor qilmayapti. Shunda ona alahsirayotgan farzandining peshonasisa mehr bilan haroratlari kaf-tini qo'yadi. Birozdan so'ng bola orom ola boshlaydi. Ona bilan bog'liq bunday hayratli misollarni ko'plab keltirish mumkin. Inson qachon baxtli bo'radi, qachonki kasalliklardan forig' bo'lganda, shirin joni orom olganda. Ona esa farzandlari baxtli bo'lganda, baxtni his qiladi. Ona shu qadar serfayz, sersavobki, ko'zga ko'rinnmas ulkan kuch bilan, mehr muhabbat bilan faqat farzandlarini, yaqinlarini emas, balki butun boshli insoniyatni bag'riga olib dardiga darmon bo'la oladi. Ona baxti farzandlar baxti, oila baxti jamiyat baxtidir. Ona bu bebaho baxtni hech kimga, hech nimaga alishmaydi.

Onalar ko'p hollarda farzandlarining ko'ngliga qarar ekan. Guvoh bo'lganlarim:

"Boram, sen yeayer,
mening qornim to'q".

"Mana bu go'shtni yegin, men
go'shtni uncha yoqtirmayman".

*"Mana bu pulni olaver,
menda unga ehtiyoj yo'q".
"Mana bu choyshabni yopgin,
men sovgatmayapman".
Yig'lama men kasal emasman.*

Aksincha, men sekkingina aksirib yuborsam darrov bemorga chiqarib, avaylab asrashga urinadi.

Bolaligimda tish og'rig'idan ko'p bezovta bo'lardim. Uxolmasdan onamdan ertak ayitib berishlarini so'rardim. Onam ham men bilan birga mijja qoqmay chiqardilar. Kaftlarini yuzimga bosganlaricha, ertaklarini boshlardi. Ertong ko'zimni ochganimda hech qanaqa og'riqni sezmas edim. Har safar og'riganimda, davolaydigan onamdir. Qishda bozorga tuflida borib, menga etik sovg'a qiladigan onajonim, dunyo, uy-ro'zg'or tashvishlari ko'nglingizni cho'ktirib, ko'zingizga yosh olganingizda, ko'zingga chang kiribdi, shekilli qizim deydigan ham onajonimdir. Bugin jajji qizingiz ulg'aydi, katta bo'ldi. Ona havotir olmang, sizning farzandingiz kuchli inson. Sizni endi hech kimga xafa qildirib qo'yamidi.

*Bu dunyoda mehir bir taftim,
Baxtim ham siz, sizsiz omadim.
Dunyolardan topgan jannatim,
Ko'zingizda yosh ko'rmay Ona!*

Odam bolasi ona tufayli bu yorug' jahonni ko'rish baxtiga mayuras-va musharraf bo'radi. Ona tufayli bu hayotning barcha lazzatlaridan bahramand bo'radi. Ona tufayli dunyoning zavq-shavqiga, quvonchlariga ko'milib yuradi. Ona tufayli baxt-iqbolga erishadi. Ona tufayli umrini yaxshilikka, ezungliklarga, fidoyi ishlarga safarbar etadi. Ona tufayli hayoti davomida egzu amallar qurshovida bo'radi. Mening

ham xuddi shunday dardkashim, maslahatgo'yim, nasihatlarini hech ayamaydigan mehribon duogo'yim hamisha yonimda. Ular bilan o'zimni bexavotir, baxtiyor his etaman.

*Men jannatni orzu qilsam,
orzularim ushalgan,
Armon mendan begonadir,
baxti yo'limga to'shalgan.
Nurga to'la koshonadir,
onalar bor xonadon,
Men baxtliman, yonimdasiz,
Jannatginam Onajon!*

Har bir farzand, xoh u o'g'il bo'lsin, xoh u qiz bo'lsin eng avvalo, onasini rozi qilishga intilishi lozim. Onalarimizga ovozimizni ko'tarishimiz ulardan xafa bo'lishimiz sira ham mumkin emas. O'ylang birodar, Allah bejiz onalar oyo'gi ostiga jannatni qo'yamadimi? Ularni beminnat mehr bilan siylamadimi, zułmat tunlari ichra boshimizda nur qilib qo'yamadimi? Biz kuysak bizdan ming chandon kuyamadimi? Evaziga bizdan nima so'raydi? Shunchaki, mehr. Biz kim bo'libmizki, unga bemehrlik qilamiz. Ota-onaning qadrini bilish uchun yetim bo'lib tug'ilish shart emas. Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, odamzod muqaddas ona siyemosini mo'tabar ayol zotini ulug'lab, hamisha sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan, Vatanimiz tuprog'i jannat bog'laridek go'zal va behabodir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor. Yonimizdag jannatlarimizni asraylik azizlar!?

*Nozima ULUG'OVA,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti Nukus filiali
2-bosqich talabasi*



Navro'z shodiyonalari

Ot o'yin, chillak, qo'g'irchoq, tosho'yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bu an'analar yurtimizda davom etib kelmoqda, ya'ni bugungi mana shunday farovon davrning fayzli kunlarida xonadonus mahallalarda doshqozonlarda sumalaklar pishirilib, sho'x-shodon kuy qo'shiqlar, laparlari bayramga yanada shukuh bag'ishlamoqda.

Mo'tabar BOYMATOVA tayyorladi.

AYOL – jamiyat guloji, mehr va muhabbat timsolidir

1 - har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qtog'tan 150 nafar qizlarning (jami 2,1 ming nafar) ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lab beriladi;

- har yili 50 nafar qizlar nufuzli xorijiy oliygoohlarga bakalavr va 10 nafari magistraturaga yuboriladi.

Bunday e'tibor va e'tirof yurtimizda barcha ayollarimizga, opasingillarimizga berilgan eng katta imkoniyatdir. Ma'lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda xalqni rozi qilish maqsadi yo'lida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning o'qishi, ishlashi, salomatligi, oilasi uchun sharoitlar yaxshilamoqda. Bu maqsadlar Taraqqiyot strategiyasining ham muhim yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 1-mart kuni o'tkazilan videoselektor yig'ilishida ham xotin-qizlar uchun yanada keng imkoniyatlar belgilandi. Bu vazifalarni tizim va samarali amalga oshirish maqsadida quyidagilar belgilandi. Prezidentimiz tashabbus bilan jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'ssata oladigan, obro'-e'tiborli ayollarni o'z safida bir-lashtirgan "Oqila ayollar" harakati, shuningdek, barcha mehnat jamaoalarida xotin-qizlarning muammolariga samarali yechim topish uchun "Ayollar kengashlari" tuzilishi ma'lum qilindi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi.

Xotin-qizlarning e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish – xalqimizda azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan. Jamiyatimizda ayolning o'ri, uning mavqeい oshib borayotgan bir davrda ayrim ko'ngilisiz holatlarning ham yuz berayotgani ko'ngilni xijil qiladi. Ularga nisbatan tazyiq va maishiy zo'rovonlikni oldini olish va ayollarga himoya ordeni berilishi ayollarning huquqlari davlat

tomonidan himoya qilinishiga isbot bo'la oldi. Hozirgi kunda ayollarimiz o'z haq-huquqlarini bilgan holda jamiyatimizda o'z o'rinnlarini topayapti, ta'lim bilan bir qatorda tadbirkorlik ishlarida ham keng faoliyat olib bormoqda.

"Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida ham ayolga e'tirof, xotin-qizlarga e'tibor xususida alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlab o'tildi. Onani, ayolni, xotin-qizlarni qadrlagan mamalakat kelajak avlodni qadrlagan bo'ladı. Zero, komil onalar – barkamol avlodning yaratuvchisi, buniyodkoridir. Prezidentimizning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida quyidagi keltirilgan raqamlar yurtimizda ayollarga bo'lgan ishonchning yaqqol isbotidir. Bugungi kunda respublikamizda mehnat bilan band aholining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Mamlakatimizda boshqaruvi tizimida ayollarning ulushi 33 foizga yetdi. Yurtimiz bo'yicha bir yarim mingga yaqin xotin-qizlar turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida ishlar qiladi. Xususan, tashkilotchi va tashabbuskor opa-singillarimiz 6 ta umuda hokim vazifasida, yuzlab hududlarimizda o'rinsbos va maslahatchi lavozimlarida samarali faoliyat ko'sratmoqda. Yirik korxonalar, banklar va kompaniyalar, tadbirkorlik subyektlarini boshqarmoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvida ularning ishtirokini kuchaytirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantririldi. Zero, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalovchi onalarimizga bo'lgan hurmat-ehtirom, qizlarimizga keng imkoniyatlar eshining ochilishi tahsinga sazovordir. Zero, ayol – hayotimizning fayzi va ko'ri, mazmuni, xonadonlarimiz farovonligining kafolatidir.

Nilufar MARATOVA,
O'zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish" ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Ilmiy-amaliy konferensiya

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasini tomonidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Qodirov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan "Muhsin Qodirovning ilmiy-ijodiy merosi" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Ushbu tadbiriga tashrif buyurgan mehnontar ta'lim dargohida yaratilgan shart-sharoitlar, amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorli bilan yaqindan tanishdilar. Professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, tajribali olimlar, amaliyotchilar, tadqiqotchilar, magistrler, tabalalar qatnashgan konferensiya da mamlakatimizda san'at va madaniyat sohalarida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar xususida aytib o'tildi. Olimming shogirdlari ustozning dramaturgiya, teatrshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslikka oid ilmiy-izlanishlari, ko'p yillik ijodiy faoliyat davomida avlodlarga qoldirgan ulkan ilmiy meroslari haqida nutq so'zlashdi.

Qayd etildiki, ijodkor kadrlarni tayyorlash pedagoglardan niyoyatda katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki ular bo'lajak san'atkoring iqtidorini, iste'dodini yanada shakllanishida katta ko'mak ko'rsatishi. Darhaqiyat, shuni ham ta'kidlash joizki, qo'shiqchilik, musiqi san'ati juda uzoq o'tmisiga egadir.

Ta'kidlandiki, Muhsin Qodirov yetakchi teatr munaqqidi bo'lgan. Uning ilmiy asarlari noyob bibliografik ishlarni sirasiga kiradi. M.Qodirovning 45 dan ortiq kitob va 80 ga yaqin ilmiy to'plamlarda nashr etilgan maqolalar, qomuslarda nashr etilgan 120 ta maqola, vaqtili matbuotda e'lon qilingan. 360 ta maqola va taqrizarlar, 40 ga yaqin teleko'rsatuv radiodeshittirishlarda mullif va boshlovchisi sifatida qo'shiqchiliklari bilan, Vatanimiz tuprog'i jannat bog'laridek go'zal va behabodir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor. Yonimizdag jannatlarimizni asraylik azizlar!?

Shundan keyin konferensiya "O'zbek teatrshunosligining paydo bo'lishi va rivojanish yo'llari" va "O'zbek teatrshunosligining zamona yuqumlar" singari yo'nalishlarda o'z ishini olib bordi. Konferensiya davomida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xurmatoy XODJIMATOVA,
O'zDSMI "Teatr san'ati" mutaxassisligi 1-kurs magistranti



O'zbek san'ati vakilalari orasida xalqimizga sevimli bo'lib qolgan chehralar juda ko'p. Jurnalistlar, xonandalar, aktrisalar, boshlovchilar.... Ekranda bugungi kunda onalar, xola yoki amma, qo'shni kabi o'rta yoshdag'i qahramonlarni gavdalalantirayotgan kino aktrisalarning ko'pchiligi aslini olganda sahna sohibasi, chunki ular avvalambor teatr aktrisalarini sanaladi. Shunday mahorat egalaridan biri, O'zbek milliy akademik drama teatr aktrisasi Feruza Boboyorovaning Milliy teatrda ijod qilayotganiga bu yil yigirma yil bo'ldi. Bu davr ham oila bekasi, nabiralar buvusi bo'lgan o'zbek ayoliga oz muddat emas. Bu hammasi sabr-bardosh, intilish, izlanish, halol mehnat samarasi. 2022-yil Feruza Boboyorova 8-mart bayrami arafasida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandilar. Aktrisa yigirma yillik mehnatining munosib taqdirlanganidan boshi osmonga yetdi. Bu mukofot uni yanada ruhlantirdi. Men bu kichik tadqiqotimda bugungi o'zbek teatr san'ati vakilasi, aktrisa Feruza Boboyorovaning san'atga kirib kelish tarixi, uning shu 20 yillik mehnat faoliyati mobaynida yaratgan obrazlari haqida mulohaza yuritmoqchiman.

Intilganga to'le yor

Aktrisa Feruza Boboyorova ijodiga bir nazar

Feruza Boboyorovaning aslida san'atga kirib kelishi juda qiziq bo'lgan.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tug'ilgan qiz, katta oilada, to'qqiz farzandning ichida voyaga yetgan. Maktab davrida turli tadbirlarda boshlovchi bo'lib, qo'shiqlar hirgoyi qilib yurgan. Buni bir sabab deb olasak, yana bir sababi rahmatli otalari qishloqlarda, paxta dalalarida kino qo'yib yurganlar. Uning ko'p kino tomosha qilganligi ham yana bir sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas. Maktabning tugatganidan keyin u oila a'zolariga o'zining san'atkor bo'imochi ekanligini aytgan, bunga hech qanday qarshilik bo'Imagan. "Ilk bor ammamning o'g'li Rustam akam bilan Toshkentga kelganman"- deb eslaysdi qahramonim. Birinchi yili institutga kira olmagan, lekin Toshkentda qolib keyingi yil uchun tayyorgarlik ko'rgan. Ikkinci yili, 1984-yil uning akasi Toshkentga kelgach, ularni Qashqadryoga olib ketadi. Oila a'zolarining qarshiliqi aynan akasi Toshkentga kelgandan so'ng paydo bo'ladi.

F.Boboyorova Shahrисabzagi pedagogika kollejida uch yil tahsil oladi. Bu davr mobaynida undagi san'atga bo'lgan qiziqish oshsa oshganki, so'nmagan. Bu intilish uni yana Toshkentga yetaklaydi. Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutida ustoz rejissor, professor Mahkam Muhammedov ularga Sirdaryo teatriga borib ishga kirishni, buning uchun teatrga kelasi o'quv yili uchun jo'natiladigan talabalar ro'yxatiga yozilishni maslahat beradi.

Shunday qilib, Feruza Boboyorova 1992-yilda Sirdaryo teatrining kostym sexida ish boshlaydilar. Bu davrda u yoqimli ovozi borligi tufayli "To't habash va bir Zebo" spektaklida rol ijro etadi. O'sha yili u Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining sirtqi bo'limiga o'qishga qabul qilinadi. Institutda o'qish bilan bir paytda Yo'ldosh Oxunboboev nomidagi Yosh tomoshabinlar teatrida kostym sexida ham ishlay boshlaydi. Shu davrda teatr rejissori Olimjon Salimov tomonidan teatrdra "Oshiq G'arib va Shohsanam" qo'g'irchoq spektakli qo'yildi. Feruza Boboyorova bu spektaklda Shohsanam rolini ijro etadi. Instituttida tahsilni tamomlayotganida kursning diplom ishi sifatida sahnalashtirilgan Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari" asarida ham rol ijro etadi. Turg'un Azizov aktrisani o'sha paytdagi Hamza, hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatriga borib ishlashga tavsiya etadi.

Farzandlari ancha ulg'aygach, aktrisa 2002-yilda O'zbek milliy akademik drama teatriga keladi. Dastlab 2003-yil "Qalliq o'yini" spektaklida Sojida roli ularga topshiriladi. Bu rol ularga ko'p rollar eshitigini ochdi desak mubolog'a bo'lmaydi. Ushbu teatrdi ijodiy faoliyatini boshlaganidan buyon Feruza Boboyorova 40 dan ortiq rol ijro etdi. Ular ichida "Uch kunlik dunyo" spektaklidi Anor, "Bevalar"da Sovchi, "Tortadurman jabrida"da Ona, "Uvvaysi"da kanizak, "Senga bir gap aytaman"da Hulkar, "Yig'loma qiz"da Qumri, "Talvusa"da Ona, "Neksiya"da Mohira, "Omon bo'lgan azizim"da Menmi, "O'zbekcha raqs"da raykom Tojiboeva, Qumri chevar, "Oydin"da Xurshida, "Iymon"da Oysha, "Sizsiz o'tmas kunlarmi"da Aziza, "Revizor"da Anna Andreevna, "Abay"da Xusnisa, "Kuzgi muktublar"da Ona, "Oq kema"da Ona bug'u, "Andishali kelinchak"da Qunduzxon, To'ychinisa, "Boborahim Mashrab"da Ona, "O'zgalar dardi"da Zahro, "Urush odamlari"da Oygul kabi ko'plab qahramonlar bor.



Mirjalolbek AKTAMOV,
O'zDSMI Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Suratda: aktrisa Feruza Boboyorova muallif bilan.

Ketma-ket uchinchi tashrif

Joriy yilning 4-mart kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev yana bir bor institut Talabalar turar joylariga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida talabalar turar joyida yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularga yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishdi hamda talabalarini qiziqirayotgan savollariga javob berdi. Talabalar turar joylaridagi sanitariya gigiyena holatlarini yanada yaxshilash, yotqxonalarini yangi jihozlar bilan ta'minlash, qizlar uchun tikuvcilik xonalarini tashkil etish, yoshlar o'rta yoshda kitobxonlikni yanada rivojlantirish, zamonaliviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Bu yerda talabalarning ovqatlanishi, internet tarmog'idan foydalanish, kitob mutolaa qilishi, gazeta va jurnal o'qishi, aqliy salohiyatlari, bilim darajalarini oshirishi, televizor tomosha qilishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoida. Talabalmi ma'nnaviy ongini shakllantirish hamda ma'nar yetuk qilib tarbiyalash maqsadida birinchi va ikkinchi talabalar turar joyida zamonaliviy ma'naviyat va ma'rifat xonalarini tashkil etilgan. Binoning har bir qavatida talabalar uchun oshxonha, yuvinish xonasi va zamonaliviy kir yuvish mashinasi bilan ta'minlangan xonalar mavjud. Bugun esa kompyuter xonasi yangi, zamonaliviy kompyuterlar olib kelib o'rnatildi.

Bu esa o'z navbatida, institut rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli sa'y-harakatlar nafaqat ta'lim borasida, balki oliyogorda ta'lim olayotgan yoshlarning talabalar turar joyidagi qulayliklar, ular uchun yaxshi sharoitlar yaratib berishga ham qaratilayotganidan dalolat beradi.

Chunki O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajaradigan mutaxassislar bo'lib yetishishlari uchun astoydil harakat qilishimiz kerak.

TALABA IJODIDAN

BAXT VA ORZU

Ko'klam kirib kelishi bilan insонning ichki kechinmalari, orzulari ham yangilanib, bahoriy tuyg'ular bilan hamohang bo'lib boraveradi go'yo. Insonning ulg'ayishi oila, maktab, jamoat ta'siri ostida kechadi. Men ham bahoriy kayfiyat bilan orzular va baxt haqidagi mulohazalarimni siz bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Maktabda "Kim bo'lsam ekan?", "Kelajakdag'i orzularim" kabi mavzularda ko'p fikr yuritganmiz. Undan tashqari, oxirida "Murod-maqsadiga yetibdi" deb tugallanadigan ertaklarni ko'p o'qirdik. Istaymizmi, yo'qmi, o'zimiz sezmagan holda baxt qayeradir olisda, unga mashaqqatlar chekib yetib borish kerak, degan tasavvur ongimizni boshqargan. Natijada, biz o'zimizga qadrli bo'lgan narsalarni to'g'ri baholay olmaganmiz.

Orzu qilish xususidagi asrar bilan tanishganimda bu haqiqatni qabul qilishim ancha qiyin kechgan. Ehtimol, uni anglashimga yillar ketgandir... Chunki, orzularning muqaddasligi haqida maktab davrida shakllantirilgan qat'iy yondashuv bunga to'sqinlik qilgan.

"Men ertaga bugundan ko'ra yaxshiroq harakat qilaman", "Ertaga bugundan ko'ra baxtiliroq bo'laman" degan orzularim bugunlarimni birma-bir qurbon qilayotganini men sezmadim. Vaholanki, ertaning bo'lish-bo'lmasligi noma'lum. Binda faqat bugun bor. Yagona va qaytarilmaydigan bugun. Mana shu bugunda men baxtimni his qilishim, anglashim va uni qadrlashim kerak. His qilishim kayfiyatimni ko'taradi, anglashim bilimimni oshiradi, qadrlashim harakatga undaydi. Demak, men hayotga to'lib yashayman.

Inson, odatda, biron narsani yo'qotmaguncha, uning qanchalik qadrli ekanini bilmaydi. Shunchaki, tasavvur qilib ko'rish kerak, bugun bor bo'lgan qancha narsaning yo'q bo'lib qolishini, avvalo, sog'ligimizni asrashimiz ham katta baxt. Shundagina uning ranglarini tiniqroq ko'ra boshlaymiz.


Hayotimdan yorqin misol keltiraman. Bir necha yillar davomida "Orzularga yetsam, baxtli bo'laman", degan qarash bilan yashaganman. Shurkrki, birinchi orzuyim bo'lgan, o'zim sevgan oliyogorda o'qiyapman. Bu ham bo'lsa mening baxtimdir...

Oliygohim

Oliygohda o'qiyimiz shodon,
Shu tufayli bizga tole yor.
Intilamiz bilimlar sari,
A'lo o'qish bizgadir shior.

Ustozlarim yuzida nurlar,
Oliygohim, bizga imkonsan.
Ilmimizni ziyoda etgan,
Fayzli maskan, jannatmakonsan.

Chamanlaring yayratar dillar,
Har yoningga nazar tashlasam.
Gul, maysalar sirli tebranar,
Seni sayru chaman aylasam.



Asta olib qo'limga sozim,
Dunyolarga ta'rifing kuylay.
Sendan doim bilimlar olib,
Har gardingni ko'zinga suray,
Oliygohim sen-la men qolay...

Fotima ERGASHEVA,
"Ashula va raqs" ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Eldor SHERMANOV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YO'LDOSHEV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:

Anvar QOBILOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yangal'och mavzlesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
[www.dsni.uz;](http://www.dsni.uz)
nashriyot@dsni.uz

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3,
hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishiilgan narxda.
Chop etishga 28.03.2022-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO/POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oqota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.